

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA POLSHANING IQTISODIY AHVOLI

Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li

Osiyo Xalqaro universiteti "Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti"

Tarix va filologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15070358>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yevropa davlatlaridagi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi vaziyat, Polsha va uning atrofidagi mamlakatlarning yuksalishi va ularning polshadagi ijtimoiy holatga ta'siri haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: "Polyaklar jamiyati", "Milliy qo'mita", "Soat-Vaqt" ro'znomasi, "Bosmaxonalarning o'zaro yordam jamiyati", "Organik mehnat" tashkiloti, "Eski konservatorlar", "rabotnik".

THE ECONOMIC SITUATION IN POLAND AT THE END OF THE 19TH AND BEGINNING OF THE 20TH CENTURIES

Abstract. This article provides information about the situation in European countries at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, the rise of Poland and its neighboring countries and their impact on the social situation in Poland.

Keywords: "Polish Society", "National Committee", "Hour-Time" newspaper, "Printing House Mutual Aid Society", "Organic Labor" organization, "Old Conservatives", "worker".

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ПОЛЬШИ В КОНЦЕ 19-ГО И НАЧАЛЕ 20-ГО ВЕКОВ

Аннотация. В статье представлена информация о ситуации в европейских странах в конце XIX и начале XX веков, подъеме Польши и соседних с ней стран, а также об их влиянии на социальную ситуацию в Польше.

Ключевые слова: «Польское общество», «Национальный комитет», газета «Соат-Вакт», «Общество взаимопомощи типографий», организация «Органический труд», «Старые консерваторы», «рабочий».

XIX asr oxirida butun Polsha hududida siyosiy va milliy zulm kuchayib ketdi. 1863-yilgi qo'zg'olon bostirilganidan so'ng chorizm Polsha qirolligini tamomila ruslashtirish siyosatini yuritdi. 60-yillarning oxirida Davlat kengashi va Ma'muriy kengash tugatildi. 70-yillarda general-gubernatolik tashkil qilinib Chor Rossiyasining hukumati tomonidan tayinlanadigan General-gubernator tomonidan boshqariladigan bo'ldi. 70-yillardan o'rta va oliy ta'lim muassasalarida, 80-yillardan boshlang'ich maktablarda polyak tilida dars berish taqiqlab

qo'yildi¹. Germaniya g'arbiy polyak yerlarida nemislashtirish siyosatini olib bordi. Pomere va Siliziyagdagidagi hamma maktablarda faqat nemis tilida dars berish joriy qilindi. 1886-yilda Germaniya hukumati tomonidan tuzilgan kolonizatsiya komissiyasi g'arbiy polyak yerlarida nemis yer egaligiga asoslangan jamiyat tuzishni rejalashtirgan edi². 1888-yilda Poznan yer banki vujudga keldi. Polshaning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy xususiyat 70-80 yillarda xo'jalik hayotining hamma sohalariga kapitalizmning tobora ko'proq kirib borayotganligi edi. 70-yillarda agrar reforma natijasida dehqonlarning tabaqalarga bo'linishi va yer suvning qishloq burjuaziyasi qo'lida to'planish jarayoni oldingiga nisbatan intensi tus oldi³.

XX asr boshlarida yersiz dehqonlar soni 1 million 200 mingdan oshib ketdi. XIX asrning 80-yillar boshlarida jami dehqon xo'jaliklarining 40 foizini kam yerli xo'jaliklar tashkil etgan bo'lsa XIX asr oxirida bu ko'rsatkich 73 foizga yetdi. Jami haydaladigan yer maydonlarining 39,7 foizi kam yerli yerli xo'jaliklar qo'lida edi⁴. Kam yerli dehqonlarning asosiy turmush manbai yollanma mehnat bo'lib, ular ish qidirib sanoat markazlariga emas, boshqa mamlakatlar Germaniya, AQSH, Janubiy Amerikasi mamlakatlariga ko'chib keta boshladilar. 80-90 yillar mobaynida Polshadan 2 millionga yaqin yaqin kishi ko'chib ketdi. Qishloq xo'jaligiga kapitalizm chuqur kirib borganligiga qaramay, unda feodalizm sarqitlari saqlanib qolgan edi. 90-yillarning oxirida haydaladigan yerlarning 42 foizi pomeschiklar qo'lida to'plandi⁵. XIX asrning 80-90 yillarida g'arbiy Polsha yerlaridagi dehqon va pomeschik xo'jaliklari kapitalizm yo'lidan borib, dehqonlarning eksropriatsiya qilish va yer-suvning yirik mulkdorlar qo'lida to'planishi yanada kuchaydi. Butun yer maydonlarining 55-58 foizi yirik zamindorlarning mulki bo'lib, ularning kata qismini nemis yunkerlari tashkil qilardi. Shu sababdan ijtimoiy ziddiyatlar milliy ziddiyatlar bilan chirmashib ketgan edi. Pomeschiklar xonavayron bo'lgan dehqonlarning ahvolidan foydalanib, yollanma mehnatning yarim feodal shartlaridan keng foydalanardi. 90-yillarda boshqa mamlakatlardan G'arbiy Yevropa yerlariga mavsumiy ishchilar yog'ilib kelishi natijasida qishloq xo'jalik ishchilariga to'lanadigan haq juda pasayib ketdi. Bu holat ayniqsa agrar rayonlar bo'lgan Poznan yerlari va Pomoridan boshqa mamlakatlarga dehqonlarning ommaviy ko'chishini kuchaytirib yubordi⁶. G'arbiy Polsha yerlarida XIX asr oxirida qishloq xo'jaligida kapitalizm jadallik bilan taraqqiy eta boshladi. Buning asosiy bu hududlarda agrar islohotlar amalga oshirilganligida edi.

¹Миллер И. С., Хренова И. А. История Польши Т-2 М: 1985г стр. 64

²Рубинштейн Е. И. Политика германского империализма в западных польских землях в конце XIX начале XX века- М: 1983г стр. 78

³Миллер И. С., Хренова И. А. История Польши Т-2 М: 1985г стр. 92

⁴Остриков П. И., Вандель П. П. Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки.- М: 1989г стр. 278

⁵Остриков П. И., Вандель П. П. Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки.- М: 1989г стр. 278

⁶Хренов И.А. Лодзинское восстание.- М: 1958г стр. 81

Bu davrda bozor munosabatlari shakllanib, intensiv tovar-kapitalistik xo'jaliklar vujudga kela boshladi. Poznan va Pomori agrar viloyatlarida qishloq xo'jaligi past darajada bo'lib, bu viloyatlarda qishloq xo'jalik xom ashyosiniqayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlari: tegirmonchilik, qand sanoati va shu kabi tarmoqlar sezilarli darajada rivojlandi.

Polshada sanoat ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i to'qimachilik sanoati bo'lib, XIX asrning 80-yillarida to'qimachilik mahsulotlarining yarmidan ko'prog'i, XX asr boshlarida esa uchdan ikki qismi Rossiya bozorlarida sotildi. Polyak sanoatchilari va rus sanoatchilari o'rtasidagi raqobat 1883-1885 yillardagi inqiroz tufayli kuchayib ketdi. Buning natijasida chor hukumati polyak sanoatchilarining g'arbdan keltiradigan paxta va ko'miridan oladigan boj va temir yo'l tariflarini oshirib yubordi⁷. Bu esa Rossiya va Polsha o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab Polshaga Rossiyadan cho'yan, temir rudasi, koks va boshqa xom ashyolar keltirilishi ortib bordi⁸. XIX asrning 80-90 yillarida kapitalning markazlashuvi va konsentratsiyalshuvi jarayonida aksionelik jamiyatlari, sindikatlar paydo bo'la boshladi. Ikki eng yirik savdo banki – Varshava banki bilan Lodz banki deyarli butun kapitalni o'z qo'liga to'pladi va sanoat korxonalarining kata qismiga egalik qila boshladi. Polyak sanoatchilari va moliyachilari foydani ko'paytirish maqsadida o'z kapitallarini Ukraina qand va metallurgiya sanoatiga kiritdilar⁹. Polshaning o'zida ham chet el kapitali jadallik bilan kirib kela boshladi.

XX asr boshlarida Polshadagi korxonalarining to'rtidan bir qismi asosan, metallurgiya, kimyo sanoati va qisman to'qimachilik sanoati Fransiya, Belgiya va nemis kapitallari bilan to'lib ketgan edi. Bu sohalar butun sanoat mahsulotlarining 60 foizini berardi¹⁰. Mayda korxonalar ko'pchilikni tashkil etib, eng yirik korxonalarda ishlovchi ishchilar soni 20 nafardan sal ko'proq edi. Bunday korxonalar jami korxonalarining 1 foizini tashkil etardi. Polshaga tutash Sileziyada sanoat ancha rivojlanagan edi. Biroq XIX asrning 70-90 yillarida sanoatning taraqqiyot sur'atlari pasaydi. 70-yillardan 90-yillargacha Sileziyada ko'mir qazib chiqarish 3-4 marta ko'paygan bo'lsa, qiyoslash uchun Rurda 6 marta ortdi. XX asr boshlarida pasayish yana davom etaverdi.

Misol uchun quyi Sileziyada toshko'mir qazib olish salmog'i 70-yillardan 1912-yilgacha pasayib bordi. Yuqori Sileziyada cho'yan ishlab chiqarish salmog'i 3 marta kamaydi. Buning asosiy sababi Sileziyada feodalizmning juda kuchli sarqitlari saqlanib qolgan edi va xonavayron bo'lgan dehqonlardan iborat arzon ishchi kuchi ko'pchilikni tashkil etardi.

⁷ Палкин И.С., Ерофеев Н.А., Ефимова А.Л. Новая история 1871-1917.-М: 1984г стр. 483

⁸ Остриков П. И., Вандель П. П. Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки.- М: 1989г стр. 283

⁹ Хренов И.А. Лодзинское восстание.- М: 1958г стр. 81

¹⁰ Миллер И. С., Хренова И. А. История Польши Т-2 М: 1985г стр. 94

Bu esa Sileziyada ishlab chiqarishda texnika-texnologiyaning qo'llanishiga to'sqinlik qilib kelardi¹¹. XIX asrning 80-yillarida Sileziyada monopoliyalar, kartellar paydo bo'la boshladi va ular asta-sekin barcha ishlab chiqarish korxonalarini o'ziga bo'ysundira boshladi. 90-yillarda sanoatning konsentratsiyalashuvi yuz berdi. Polsha va unga yondosh Galitsiya Sileziya og'ir sanoat mahsulotlari sotiladigan bozorga aylanib qoldi. 80-yillarda Sileziya cho'yanining 98 foizi Polsha eksport qilingan. Lekin Rossiya va Germaniya munosabatlari yomonlashgach Polshada cho'yan importi ancha susayib qoldi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida xalqaro munosabatlarning yomonlashuvi va keskinlashuvi natijida turli davlatlar qo'l ostida bo'lgan polyak yerlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yomonlashib qoldi¹². Galitsiyada tabiiy boyliklar ko'p bo'lishiga qaramay, XIX asr oxirida ham feodalizm sarqitlari saqlanib qolaverdi. Aholining beshdan to'rt qismi qishloq xo'jaligida band edi. Galitsiya sanoatining rivojlanmasligiga asosiy sabab uning ichki bozori kichikligi va Avstriya hamda nemis tovarlari bilan raqobat qila olmasligida edi¹³. Galitsiyada qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlaydigan mayda sanoat, hunarmandchilik va kosibchilik bir muncha rivojlandi. XIX asrning 80-90 yillarida neft va ko'mir qazib chiqarish ancha ko'paygan bo'lsa ham, bu narsa Galitsiyaning agrar xarakterini o'zgartirmadi. Galitsiyada feodalizm sarqitlari saqlanib qolganligi sababli qishloq xo'jaligining ekstensiv xarakteriga ega edi. Bu yerda katta-katta pomeshchik latifundiyalari mavjud bo'lib, ular 2 ming gektardan ortiq yerga qilardi. Bu jami haydaladigan yerlarning 33 foiziga to'g'ri kelgan. Umuman olganda haydaladigan yerlarning yarmidan ko'pi hamma o'rmonlar va o'tloqlarning katta qismi pomeshchiklar qo'lida bo'lgan. Galitsiya dehqonlarning ko'pchiligi kam yerli dehqonlar edi va ularning yerlari pomeshchiklar yerlari bilan aralashib ketgan edi. Galitsiyadagi dehxon xo'jaliklarning 80 foizdan ko'prog'i kam yeri bo'lgan juda mayda xo'jaliklar hisoblangan. Bu dehqonlarning birdan-bir tirikchilik manbayi yollanib ishlash edi. 90-yillarda Galitsiyadan har yili 30 mingdan oshiq kishi boshqa joylarga tirikchilik uchun emigratsiya qilardi. XIX asrning 70-90 yillarida butun Polsha yerlaridagi ahvolni tahlil qiladigan bo'lsak, ular hayot kechirish sohasidagi siyosiy sharoitlari va iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari jihatidan bir-birlaridan bir muncha farq qilsalar ham, lekin ularning hammasi siyosiy va milliy zulm ostida ezilib kelardi. Sanoat taraqqiyoti jihatidan ilg'or mamalakatlardan orqada qolgan edilar. Qishloq xo'jaligida kapitalizm "Pruscha yo'l" dan taraqqiy qilib borayotgan va shu munosabat bilan hamma polyak yerlaridagi burjua demokratik inqilob uchun zamin saqlanib

¹¹ Палкин И.С., Ерофеев Н.А., Ефимова А.Л. Новая история 1871-1917.-М: 1984г стр. 490

¹² Миллер И. С., Хренова И. А. История Польши Т-2 М: 1985г стр. 103

¹³ Рубинштейн Е. И. Политика германского империализма в западных польских землях в конце XIX начале XX века- М: 1983г стр. 93

qolayotgan edi va shu inqilob masalasi ijtimoiy kurashda ilgarigiday birinchi darajali ahamiyatga ega edi¹⁴.

XIX asrning 70-80 yillariga kelib ishchilar sinfi ijtimoiy harakatda mustaqil siyosiy kuch sifatida shakllanib borayotgan edi. Bu davrda Polsha mehnat qonunchiligida texnika xavfsizligi qoidalari, ishchilar huquqini himoya qilish haqida hech bir soʻz yoʻq edi. Gʻarbiy Polshada ham ishchilarning ahvoli bundan yomonroq edi. Yuqori va Quyi Sileziya koʻmir sanoatida 10 soatlik ish kuni mavjud edi. Sileziya metallurgiya korxonalarida esa 14-18 soatga yetardi¹⁵. Ish kunining uzunligiga qaramay ishchilarning mehnatiga yarasha haq toʻlanmasdi. Ishchilarning asosiy kundalik yemishini kartoshka va non tashkil etardi. Ish haqining juda ozligi, ovqatlanish va uy-joy sharoitlarining yaxshi emasligi, tibbiy xizmatning yoʻlga qoʻyilmaganligi tufayli ishchilar oʻrasida oʻlim darajasi juda yuqori edi. Ekspluatatsiyaning kuchayishi va ishchilarning tobora qashshoqlashuvi ularni korxona egalari qarshi kurashga undab turardi. XIX asrning 70-yillarida ishchilarning stixiyali chiqishlari kuchayib ketdi. 1882-yil oʻsha davrdagi yirik ish tashlardan boʻlib, Varshava-Vena temir yoʻli mexanika korxonasi ishchilarining ish tashlashi edi¹⁶. Jerordov manufakturasi ishchilarining 1883-yildagi ish tashlashi ham oʻsha davr ish tashlari uchun turtki boʻldi. XIX asr 80-yillari Sileziyada ishchilar harakati muntazam ravishda sodir boʻlib turdi. 1889-yilda ishchilar ish haqini oshirish va ish kunini 10 soatgacha kamaytirishga muvaffaq boʻlishdi¹⁷. XIX asrning 90-yillarida butun Polsha hududida ish tashlashlar avj olib ketdi. Bu vaqtga kelib, ishchilar harakati butun sanoat tarmoqlari va sanoat rayonlariga tarqala boshladi. 1892-yilda Lodzda boʻlgan voqealar ishchilar harakatida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Unda 1-may namoyishlari umumiy ish tashlashga aylanib ketgan edi. 5-mayda ish tashlashlar shahardagi barcha korxonalarga yoyilib, Lodz atrofiga tarqala boshladi. Bu ish tashlashlarda 80 mingdan ortiq ishchi qatnashdi. Chor hukumati harakatni bostirish uchun lodzga qoʻshin yubordi va 6-mayda shaharda harbiy holat eʼlon qilindi. Qamoqqa olishlar va otib oʻldirishlar avj olib ketdi. Garchi harakat bostirilgan boʻlsa ham, u polyak ishchilar harakatida yangi bosqich edi, ommaviy kurash boshalanishiga turtki boʻldi. Shu davrda polyak ishchilarini gʻoya asosida ikki sotsialistik tashkilot “II proletariat” (1888-1893) va “Polyak ishchilari soyuzi” (1889-1893) tashkilotlari birlashtirib turardi¹⁸. Oʻzlarini “I proletariat” partiyasining ishini davom ettiruvchilar deb hisoblangan birinchi tashkilot aʼzolari katta tashviqotchilik ishlarini olib bordilar. “Polyak ishchilar soyuzi” tashkilotlari esa Varshava, Lodz shaharlarida, Dombrov havzasida tashviqot olib bordi.

¹⁴ Миллер И. С., Хренова И. А. История Польши Т-2 М: 1985г стр. 110

¹⁵ Остриков П. И., Вандель П. П. Сборник документов по истории нового времени стран Европы и Америки.- М: 1989г стр. 294

¹⁶ Пухлов Н. Н. Рабочее движение в королевстве Полском в 90-годы XIX века.-М: 1964г стр. 153

¹⁷ Палкин И.С., Ерофеев Н.А., Ефимова А.Л. Новая история 1871-1917.-М: 1984г стр. 500

¹⁸ Хренов И.А. Лодзинское восстание.- М: 1958г стр. 98

Bu soyuz rahabari mashhur polyak inqilobchisi Yuman Marxevskiy (1866-1925) turardi. “Polyak ishchilari soyuzi”ning 1892-yil 1-may xitobnomasida siyosiy ozodliklar, 8 soatlik ish kuni va haqini oshirish uchun burjuaziya va chorizmga qarshi kurashga da’vat qilingan edi. “Polyak ishchilari soyuzi” va “II proletariat” tashkilotlarining faoliyati natijasida Polsha sotsial demokratik partiyasining paydo bo’lishi uchun zamin hozirlandi. 1893-yilda tashkil topgan bu partiyaning asosini “II proletariat” va “Polyak ishchilari soyuzi” a’zolari tashkil etar edi.

1894-yil martida Varshavada bu partiyaning yashirin sur’atda I syezdi bo’lib o’tdi. Xuddi shu davrda R. Lyuksemburg va Y. Marxlevskiy boshliq polyak sotsial demokratlari chet elda “С права работчина” nomli gazeta nashr qila boshladilar¹⁹. Polyak sotsial demokratlari o’zlarining maqolalarida polyak proletariyati kurashining asosiy maqsadi sotsialistik inqilobdir, bu inqilobdan oldin chorizm ag’darilishi va konstitutsiya hamda siyosiy erkinliklar qo’lga kiritilishi lozim deb hisoblardilar. Sotsial demokratlar har qanday millatchilik ko’rinishlariga qarshi qat’iy kurash olib borgan. Sotsial demokratlar dehqonlar masalasi va milliy masalani hal qilishda to’g’ri yo’ldan bormadilar. Chunki ular dehqonlar bilan tuziladigan ittifoq qanchalik ahamiyatli bo’lishi haqida o’ylab ham o’tirmay, ularga oddiy sinf sifatida qarab keldilar. Polshaning kapitalistik mamlakatga aylanayotganligi, unda sinfiy ziddiyatlarning keskinlashayotganligi, ishchilar harakatlari kengayib polyak hukmron sinflarining Avstriya-Vengriya, Germaniya, Rossiya hukmron sinflari bilan tobora chirmashib ketayotganligi ishchilar sinfini milliy ozodlik va mustaqillik homiysi qilib maydonga chiqarayotganligini polyak sotsial demokratlari hisobga olmadi²⁰. XIX asr 90-yillarida sotsial demokratlarga qarshi qatag’onlar ularning faoliyatini to’xtatib qo’ygan edi. 1899-yilda Varshavada, so’ngra esa boshqa sanoat markazlarida sotsial-demokratik tashkilotlar qaytib o’z faoliyatini boshladi. 1900-yilda Polsha sotsial-demokratlari bilan Litva sotsial-demokratlari birlashib, Polsha qirolligi va Litva sotsial-demokratiyasi deb ataladigan bo’ldi. Polsha sotsial-demokratik partiyasini tiklash va uni Litva sotsial-demokratik partiyasi bilan birlashtirishda taniqli polyak arbobi Felike Edmundovich Dzerjinskiy (1877-1926) juda katta rol o’ynadi²¹.

Proletariat sinfiy kurashining rivojlanishi va ziddiyatlarning keskinlashishi polyak hukmron sinflarining polshani taqsim qilib tashlagan davlatlarning hukmron sinflari va ularning hukumatlari bilan ittifoq tuzish va hamkorlik qilishga tobora intilishiga sabab bo’ldi. Butun Polsha hududida yirik pomeschchiklar va burjuaziya, yuqori mansablardagi ruhoniylar polyak yerlarida polyaklarga qarshi qaratilgan siyosatga javoban harakat qilmadilar. Hukumatning barcha choralarini sodiq fuqarolik prinsipida ma’qullab keldilar.

¹⁹ Пухлов Н. Н. Рабочее движение в королевстве Полском в 90-годы XIX века.-М: 1964г стр. 157

²⁰ Шустер. У. Революция 1905-1907 гг в Польши.-М: 1977г стр. 134

²¹ Шустер. У. Революция 1905-1907 гг в Польши.-М: 1977г стр. 136

XIX asr 90-yillarida polyak burjuaziyasi kuchlari konsolidatsiya qilinadi va uning siyosiy partiyalari tuziladi. Bu partiyalarning eng kattasi 1897-yil Polshada vujudga kelgan “Endeklar” partiyasi edi. Endeklarning faoliyati ishchilar va dehqonlar harakati uchun juda xavfli tus oldi.

Polyak burjuaziyasi olayotgan foydalar ishchilarning imtiyozli yuqori tabaqasini vujudga keltirib, uni o‘z agenturasiga aylantirish imkoniyatini berdi. Burjuaziya bu holatdan Polyak ishchilar harakatini bo‘lib tashlash uchun foydalandi. Polyak ishchilar harakatidagi ajralish millatchi va reformistik oqimning amalga oshirgan ishi edi.

REFERENCES

1. Рубинштейн Е. И. Политика германского империализма в западных польских землях в конце XIX начале XX века- М: 1983г
2. Костюшка И. И. Разложение феодальных щетцшений и развитие капитализма в селском хозяйстве Царства Полского- М: 1954г
3. Миллер И. С., Хренова И. А. История Польши Т-2 М: 1985г
4. Палкин И.С., Ерофеев Н.А., Ефимова А.Л. Новая история 1871-1917.-М: 1984г
5. Корпилов А. А. Очерки по истории общественного движения и крестьянского дела в России. М: 1965 г.
6. Миска. М. Полського восстании 1863 год. М: 1952 г.
7. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). Modern Science and Research, 3(2), 1071-1073.
8. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE" RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. Modern Science and Research, 3(1), 568-572.
9. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 179-183.
10. Xayrullayev, U. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION.
11. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. Modern Science and Research, 3(12), 843-851.
12. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. Modern Science and Research, 3(12), 339-343.
13. Xayrullayev, U., Sayfutdinov, F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. Modern Science and Research, 4(1), 147-154.

14. Xayrullayev, U. (2025). BUXORO VILOYATINING IQTISODIY HOLATI (1990-1991 YILLAR). *Modern Science and Research*, 4(1), 1018-1024.
15. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
16. Xayrullayev, U. F. (2023). 1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATIDAGI O'ZGARISHLAR. *SCHOLAR*, 1(28), 337-340.
17. Xayrullayev, U. (2025). MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO VILOYATIDAGI IJTIMOIIY HOLAT. *Modern Science and Research*, 4(2), 1186-1193.
18. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
19. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
20. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
21. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
22. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.
23. Boltayev, O. (2025). TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG'ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(1), 909-917.
24. Ярашова, М. (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
25. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
26. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>

27. Yarashova, M. (2024). ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
28. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
29. Yarashova, M., Sa'dullayev, U., & Yo'ldosheva, F. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN'ANAVIY BOSH KIYIMLARI- DO'PPI VA RO'MOL. *Modern Science and Research*, 4(1), 600–607. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64116>
30. Yarashova M. ., & Sultonova, M. (2025). BUXORO VOHASI DAFN MAROSIMI KIYIMLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ IRIM-SIRIMLAR. *Modern Science and Research*, 4(1), 352–358. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63674>
31. Yarashova, M. (2025). EDVARD TAYLOR –ETNOLOGIYADA EVOLYUTSIONISTIK MAKTAB ASOSCHISI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1005–1012. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68483>
32. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. *SCHOLAR*, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
33. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
34. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
35. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
36. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. *MODERN SCIENCE AND RESEARCH*, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>

37. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>
38. XORAZMSHOHIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O'RNI. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 463–469. <https://universalpublishings.com/index.php/mphttp/article/view/5192>
39. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). The coronation and campaigns of Alexander The Great. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 400–412. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11222912>
40. Muyiddinov Bekali. (2024). COVERAGE OF LEGAL ISSUES IN "AVESTO". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 222–230. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12191420>
41. MUYIDDINOV BEKALI, & QORYOG'DIEV Z. (2022). ABOUT THE CONQUEST OF BUKHARA BY THE KHOREZMSHAHS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 158–161. Retrieved from <https://www.ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/383>
42. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). History of State Institutions in the Kushan State, Which Founded Statehood on the Territory of Central Asia. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 184–188. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4070>
43. Bahodir o'g'li, M. B. (2024). Avesto is an Ancient Written Monument Containing Information About the Life of the Peoples of Central Asia. *Miasto Przyszłości*, 53, 970–975. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4982>
44. Muyiddinov Bekali. (2024). SOMONIYLAR DAVLATIDA HARBIYLARGA BERILGAN E'TIBOR VA HARBIY SAN'AT. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14209121>
45. Muyiddinov Bekali. (2024). O'ZLIKNI NAMOYON QILISHDA XALQ DOSTONLARINING AMALIY AHAMIYATI VA KITOBIIY DOSTONLARNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14528916>
46. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14605977>
47. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606021>

48. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA 1900-1910-YILLARDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIIY HAYOT. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606101>
49. Muyiddinov Bekali. (2025). ILK O'RTA ASRLARGA OID MUG' ARXIVINING TOPILISHI VA O'RGANILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14680881>
50. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Tursuntoshova Sabrina Toshpo'lat qizi. (2025). ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSIDA TARIX FANINING O'RNI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14735052>
51. Sayfutdinov , F. (2024). ETHNIC COMPOSITION OF THE ZARAFSHAN OASIS (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(1), 577–581. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28335>
52. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>
53. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 61–68. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11>
54. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. *Modern Science and Research*, 2(10), 650–657. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727>
55. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich, (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
56. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
57. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
58. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
59. Rahmonova S., Xayrullayev U., & Sayfutdinov, F. (2025). “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ”НИНГ МОҲИЯТИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗИ, ХАРАКТЕРИ ВА

РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 479–488.

Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/61669>

60. Xayrullayev U., Sayfutdinov F., & Rahmonova, S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 4(1), 147–154. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60142>
61. Rahmonova, S., Xayrullayev, U., & Sayfutdinov, F. (2025). “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” НИНГ МОЎЯТИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗИ, ХАРАКТЕРИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 479-488.
62. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. *Modern Science and Research*, 3(2), 500-507.
63. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. *Modern Science and Research*, 3(1), 504-510.
64. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 655-659.
65. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 42-47.
66. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. *Modern Science and Research*, 2(12), 801-807.
67. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17-23.
68. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". *Modern Science and Research*, 2(9), 404-409.
69. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.